



## YOZUVNING INSONIYAT TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI

**Qurbonova Nigoraxon Nabiyevna**

*Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi, 3-darajali yurist.*

Tel. +998913292651 [nigoraqurbonova@mail.com](mailto:nigoraqurbonova@mail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biri ekanligi, til tufayli inson tafakkuri boyib, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'lganligi, tilning bu noyob vazifasini bajarishida yozuvning ahamiyati kata ekanligi yuzasidan mulohaza yuritilgan. Shuningdek, yozuvning paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u tilning taraqqiyotiga katta hissa qo'shishi, yozuv voqea va hodisalarni abadiylashtirish hamda voqea va hodisalarni (axborotni) uzoq, masofaga yetkazish imkonini berishi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Til, nutq, tafakkur, yozuv, ong, leksik qatlam, grammatik qatlam, So'g'd yozuvi, O'rxun-Enasov (runik) yozuvi, uyg'ur yozuvi, arab yozuvi, turkiy tillar, qadimiy yozma matnlar, bitiktoshalar, lotin alifbosi, kirill alifbosi, savodxonlik.

Insoniyat paydo bo'libdiki, tildan unumli foydalanib kelmoqda. Til asrlar davomida jamiyat hayotida eng muhim o'rin tutib kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi.

Yozuvning – bashariyat yaratgan eng yirik kashfiyotlardan biri hisoblanadi. Insoniyatning qo'lga kiritgan eng yirik davrga xos madaniy obidalar yig'indisi, fikriy natijalarning hozirgi davrga yetib kelishida yozuvning roli kattadir. Agar yozuv bo'lmaganda, qadimgi ajdodlarimizdan qolgan ulkan tajriba, ular yaratgan ijodiy yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi. Yozuvning yaratilishi, unung takomillashtirilishi, jamiyat taraqqiyoti, eng muhimi, adabiy tilning rivojlanishini tezlashtirish hisoblanadi. Til dastlabki qarashda barqaror, o'zgarmas hodisa hisoblanadi. Masalan, bizga fikr almashish quroli bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek tili, bobolarimizga ham, ota-onalarimizga ham birday xizmat qilib kelgan. Bobo va nabira o'zaro gaplashayotganlarida na birinchi va na keyingi "avlod" til nuqtayi nazaridan hech qanday qiyinchilik sezmaydi. Ular doimo bir-birlarini tushunishadi. Biroq til qotib qolgan narsa emas. Til har kun, har daqiqa o'zgaruvchan hodisadir. Tildagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar shunday sekinlik bilan sodir bo'ladiki, buni bir avlodning



yashash davrida ajratib olish va uni qayd qilish odatda amri maholdir. Uch-to'rt avloddan keyin esa, tilning leksik, grammatik qatlamlaridagi o'zgarishlar ko'zga tashlana boshlanadi. Bunday o'zgarishlarni biz bir narsa tufayli u ham bo'lsa, yozuv orqali bilib olishimiz mumkin (gap yozuv paydo bo'lgandan so'nggi davr haqida boradi). Agar yozuv bo'lmasa, til evolyutsiyasi to'grisida bizda hech qanday tasavvur bo'lmas edi. Faqat yozuv borligi uchungina, biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish sharafiga muyassar bo'lamiz: bu rivojlanishni qayd qilamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni hozirgi davrdagi til bilan qiyoslaymiz. Tilning rivojlanish yo'lini o'rganamiz, tilga kirib kelayotgan yangiliklarni va ularning sababini aniqlaymiz. O'qish va yozuv hozirgi vaqtda shunchalik odat tusiga kirib qolganki, go'yo ular bir umr til bilan birga bog'liq bo'lgandek ko'rinadi. Aslida yozuvning paydo bo'lganiga ko'p davr bo'lgani yo'q. Ba'zi tillarning hanuzgacha yozuvi yo'q. Yozuvning paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u tilning taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Yozuv voqea va hodisalarni abadiylashtirish hamda voqea va hodisalarni (axborotni) uzoq, masofaga yetkazish imkonini beradi.

Markaziy Osiyodagi xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi behad ko'hna yozuv madaniyatiga ega. Ular qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelganlar. So'g'd, O'rxun-Enasov (runik), uyg'ur, arab yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar muayyan darajada oromiy yozuvi bilan bog'liq. Turkiy tillarga oid eng qadimiy yozma matnlar eramizning beshinchi asriga tegishlidir. V—X asrlarda turkiy xalqlar orasida O'rxun yozuvi (boshqa nomlari – turk- runik yozuvi, dulbarchin) keng tarqalgan edi. O'rxun yozuvi turkiy tillarning xususiyatlariga juda mos keladi. Bu yozuv yodgorliklari rang-barang bo'lgan, lekin ulardan bizgacha, asosan, qabr toshlariga yozilgan bitiklarga yetib kelgan, chunki toshlar asrlar davomida saqlanib kelgan. Bu yozuv turkiy, jumladan, o'zbek xalqi XX asrgacha qo'llab kelgan yozuvlar ichida eng qulayi bo'lgan. XI asrdan keyin o'rxun yozuvi tamoman iste'moldan chiqdi.

O'rxun yozuvi bilan deyarli bir davrda o'zbek xalqining ajdodlari uyg'ur yozuvidan ham foydalanganlar. Uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u vatanimizda, XV asrgacha iste'moda bo'lgan. Mashhur "Qutadg'u bilik" dostonining bir nusxasi, "Hibatul haqoyiq" dostonining bir necha nusxasi, Xorazmiy "Muhabbatnoma" sining bir nusxasi, hatto XV asrda ko'chirilib bir to'plamga kiritilgan Lutfiyning bir necha g'azallari uyg'ur yozuvida yozilgan.

Ajdodlarimiz qo'llab kelgan yozuvlar orasida eng ko'p ishlatilgan yozuv arab alifbosi bilan bog'liq. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi VIII asrdan boshlab qo'llanila boshlanadi. Deyarli 800 yil mobaynida bu yozuv uyg'ur yozuvi bilan yonma-yon ishlatilib kelindi. Ammo XVI asrdan, ya'ni shayboniylar hukmronligi davridan uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib ketdi. Arab yozuvida bizning eng nodir yozma yodgorliklarimiz, ming yillik tariximiz bitilgan bo'lsa-da, bu yozuv o'zbek tili fonetikasi va tabiatiga mos kelmas edi. Shuning uchun jadidlar XX asrning boshlaridayoq eski o'zbek yozuvini isloh qilish, uni o'zbek tiliga moslashtirish uchun harakat



qildilar.1921-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'tish harakati boshlandi.

1929- yildan boshlab o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalana boshladi. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvi o'zbek adabiy tili me'yorlari aniq belgilanmagan davrda qabul qilingan edi va unda ayrim noqulayliklar bor edi. Oradan ko'p o'tmay, sobiq sho'ro tuzumida millatlarni tenglashtirish, millatlararo farqlarni yo'qotish harakati boshlandi, rus tilining, ta'siri kuchaydi. Natijada, 1940- yildan boshlab o'zbek xalqi kirill (rus) alifbosi asosidagi yozuvga o'tdi. Kirill alifbosining o'zbek tili xususiyatlarini ifodalash uchun qulay emasligi haqida mutaxassislar uzoq vaqt munozara qildilar, imloni takomillashtirish, hatto kirill alifbosidan voz kechish haqidagi fikrlarni ilgari surdilar. O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahonga yuz tutayotganligi ilg'or kommunikatsiya tizimiga jadal kirishini taqozo etmoqda. Jahondagi ilg'or texnologiya va fan yutuqlaridan samarali foydalana olish mamlakatimiz uchun muhimdir. Hozir dunyoda eng keng tarqalgan vozuv lotin yozuvidir, bu yozuvdan dunyo aholisining 30% i foydalanadi. Ana shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993- yilning 2- sentabrida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995- yil 6- mayda bu qonunga ayrim o'zgarishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Bu hujjatlarga binoan yangi alifboga o'tish bosqichma-bosqich, ya'ni 1996- yil 1- sentabrdan boshlab, 2005- yil 1- sentyabrga qadar amalga oshirilishi kerak edi, biroq ushbu jarayon hamon davom etmoqda. Ushbu alifbo 26 harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat. 1995-yil 24-avgustda mazkur alifboning imlo qoidalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotimiz barcha jabhalarida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidan hamda mazkur imlo qoidalaridan foydalanishimiz belgilan. Ushbu masalada hukumat tomonidan tegishli qarorlar, dasturlar qabul qilindi. Biroq, mimng afsus va nadomatlar bo'lsinki, ish yuritishda hali-hanuz kirill alifbosidan foydalanish kuzatilmoqda. Ushbu holat ommaviy savodxonlikning pasayishiga olib kelmoqda. Chunku har ikkala yozuvning imlo qoidalari o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, foydalanuvchilar mazkur qoidalarni o'z o'rnida qo'llamasliklari, lotin yozuvi qoidalarini kirill yozuvi uchun yoki aksincha, kirill yozuvi qoidalarini lotin yozuvi uchun qo'llashlari natijasida ko'plab imloviy xatolarning kelib chiqayotganligi achinarli holdir. Bunday noxush holatlarning oldini olish uchun davlatning tegishli qo'mitalari, mutaxassislar tomonidan choralar ko'rilmasa, oqibati salbiy bo'lishi muqarrar.

Xususan, tilning asosiy vazifasi — kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba, bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va b. qimmatli axborotlarning barcha-barchasi ajdodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi



bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, yozuv ham shunchalik bog'liqdir. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda yaratilgan emas. Ko'pchilik xalqlar o'z yozuvlarini boshqa til Yo'ini o'z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo'li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o'z izini qoldirgan. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar va h.k.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Til va yozuv insoniyat tamaddunida alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda har ikki hodisani bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Butun bir jamiyatning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lsa, yozuv millatning ruhiy-ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omildir. U ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy ko'priq vazifasini bajaradi. Yozuvning barqarorligi ko'p jihatdan kishilik jamiyati rivojiga borib taqaladi. Shunday ekan, uning sofliigi va rivoji uchun qayg'urish, xalqning savodxonligini oshirish uchun harakat qilish har bir fuqaroning burchidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2008
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5850-sonli 21.10.2019 yil qabul qilingan O'zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. T., 1995.
4. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.).
5. Mahmudov N., va b. Davlat tilida ish yuritish (9-nashri). – Toshkent, 2020.
6. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
7. Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent: ToshDSHI, 2016. – 532 b.
8. A.Aripova. Amaliy o'zbek tili. O'quv qo'llanma. 2019 yil.
9. Gulyamova G., Ziyamuhamedova Sh., Bozozrova N., Choriyev O. Yuristning yozma nutqi: Darslik // Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 3240100-Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi uchun tavsiya etilgan. – Toshkent: TDIU, 2020.